

## Suvni tozalash uchun nanokompozitli kationit

2020-yilda O'zR FA Yadro fizikasi institutida yangi nanokompozitli kationit yordamida import o'rnini bosadigan kimyoviy suv tozalash tizimlarining tajriba ishlab chiqarilishi boshlandi.



Xorijiy analoglaridan farqli o'laroq, Institut olimlari kumush nanozarrachalari bilan modifikatsiyalangan kuchli kislotali kation almashinish smolasini qo'llashga asoslangan yangi texnologiyadan foydalanadilar, bu nafaqat bakteritsid xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi, balki erigan kislorodni suvdan olib tashlash funksiyasini bajarishga imkon beradi. Hozirgi vaqtda yangi ishlab chiqilgan kimyoviy suv tozalash tizimlari respublikamizda, jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida, "Toshisshiqquvvat" DUKda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

